



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASINING BUYRUG‘I

2022 yil “14” may № 31

“Davlat statistika organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisobot ma’lumotlarini birlamchi statistika tahlilini o‘tkazish tartibi”ga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan statistika sohasiga oid uslubiy hujjatlarni muvofiqlashtirish maqsadida, BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining 2017- yil 17- oktyabrdagi 97- son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Davlat statistika organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisobot ma’lumotlarini birlamchi statistika tahlilini o‘tkazish tartibi”ga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Davlat statistika qo‘mitasining bo‘linmalari va hududiy statistika boshqarmalari bo‘limlari xo‘jalik yurituvchi subyektlarining birlamchi statistika tahlilini o‘tkazishda, mazkur o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda amal qilsinlar.

3. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (F. Berdiboyev) ushbu buyruqni Davlat statistika qo‘mitasi markaziy apparati boshqarmalari va hududiy statistika organlariga yetkazilishini ta’minlasin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Rais

B. Begalov

Davlat statistika qo'mitasining
2022- yil 17- maydagi
31- son buyrug'iga
ILOVA

**“Davlat statistika organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning
hisobot ma’lumotlarini birlamchi statistika tahlilini o‘tkazish tartibi”ga
kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. Mazkur tartib nomidagi “statistik” so‘zi “statistika” so‘ziga almashtirilsin.
2. Kirish qismining birinchi xat boshisidagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat statistikasi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq so‘zidagi “davlat statistikasi” so‘zlari “rasmiy statistika” so‘zlariga almashtirilsin.
3. 1- bobning 3- bandidagi “Davlat statistika ishlari dasturiga” so‘zlaridagi “Davlat” va “ishlari” so‘zlari chiqarib tashlansin;
- 4- 8- bandlaridagi Davlat statistika hisoboti so‘zlaridagi “davlat” so‘zlari chiqarib tashlansin.
- 9- bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:
“Hisobot shakllari bo‘yicha hisobot ma’lumotlarini yig‘ish tartibi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 16- iyundagi 9- mb-son qarori (ro‘yxat raqami 3312, 2021- y. 16.07.) bilan tasdiqlangan “Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizom”da belgilab qo‘yilgan.
4. 2-bobning 11, 15, 16, 17, 22- bandlaridagi va 3- bobning 27, 28, 30- bandlaridagi “Davlat statistika hisoboti shakli” so‘zlaridagi “davlat” so‘zi chiqarib tashlansin.
5. 2- bobning 11- bandi ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:
“Hisobot ma’lumotlarining to‘liqligini ekspertizadan o‘tkazish, davlat statistika organlari tomonidan davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 30- apreldagi 10- son qarori bilan tasdiqlangan “Statistika hisobotlarni yig‘ish jarayonida hisobot topshiruvchi subyektlarni to‘liq qamrab olinishini taminlash bo‘yicha ishlarni tashkil etish reglamenti”ga muvofiq amalga oshiriladi.”.